

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 y. yanvar– oktyabr holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat olib borayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilga nisbatan 3215 taga o'sdi.
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi o'tgan yilga nisbatan 0,18 % f.p ga kamaygan.
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni 3063 taga oshgan.

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyatda 3762 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 668 taga ko'p.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 36,3 % ga kamaygan hamda ularning soni 699 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.


Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3075 (11,8 %) taga o'sgan hamda ularning umumiy soni 29078 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Farg'ona (18,6 %), Qo'qon (13,7%), Marg'ilon (9,8%) shaharlarida, Uchko'priq (5,2%) va Dang'ara (4,8 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda

01.11.2018 y.



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 noyabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Farg'ona viloyati	29078	100,0	28678	98,6
Far'gona sh.	5409	18,6	5308	18,5
Qo'qon sh.	3983	13,7	3929	13,7
Quvasoy sh.	857	2,9	845	2,9
Marg'ilon sh.	2847	9,8	2835	9,9
tumanlar				
Oltiariq	1238	4,3	1233	4,3
Qo'shtepa	950	3,3	935	3,3
Bog'dod	991	3,4	988	3,4
Buvayda	1255	4,3	1241	4,3
Beshariq	909	3,1	897	3,1
Quva	1216	4,2	1190	4,1
Uchko'prik	1511	5,2	1473	5,1
Rishton	889	3,1	868	3,0
So'x	710	2,4	710	2,5
Toshloq	1268	4,4	1250	4,4
O'zbekiston	1306	4,5	1295	4,5
Farg'ona	1010	3,5	976	3,4
Dang'ara	1386	4,8	1372	4,8
Furqat	682	2,3	674	2,4
Yozyovon	661	2,3	659	2,3




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 98,6 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 1,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,3 % ga kamaygan.


■ faoliyat ko'rsatayotganlar ■ faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 5,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,2 % sanoatda, 8,3 % qurilishda, 21,4 % savdoda, 4,0 % tashish va saqlash, 4,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,4 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




2018 yil yanvar-oktyabr holatiga 3762 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 21,6 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Farg'ona (639 ta), Qo'qon (485 ta), Marg'ilon (311 ta) shaharlarida, Oltiariq (225 ta), Uchko'prik (207 ta) va Buvayda (182 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (82 ta) hamda Qo'shtepa (93 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (993 ta), savdoda (740 ta), qurilishda (399 ta), qishloq o'rmon va baliq xo'jaligida (224 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (186 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (73ta), tashish va saqlashda (149 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (106 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi axborot va aloqada (-0,6 f.p.dan), qishloq o'rmon va baliq xo'jaligida (-0,1 f.p.), savdoda (-0,1 f.p.), kamayganligi, buning natijasida tashish va saqlashda (+0,0 f.p.), qurilishda (+0,3 f.p.), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (+0,1 f.p) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,2 f.p.dan), sanoatda (+0, f.p.) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.11.2017 y.	01.11.2018 y.	farqi (+/-)
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	5,4	5,3	-0,1
Sanoat	20,6	21,2	0,4
Qurilish	8,0	8,3	0,3
Savdo	21,5	21,4	-0,1
Tashish va saqlash	4,0	4,0	0,0
Yashash va ovqatlanish	4,4	4,6	0,2
Axborot va aloqa	4,0	3,4	-0,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ximoya	2,3	2,4	0,1
Boshqa turlar	29,6	29,5	0,1

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 noyabr holatiga 23249 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 8438 ta, oilaviy korxonalar – 2696 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 11433 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 51 tani va boshqalar 631 tani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 260 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 65 taga yoki 33,3 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 192 tasi qo'shma korxonalar, 68 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Farg'ona 96 ta (36,9 %), Qo'qon 39 ta (15,0 %), Marg'ilon 17 ta (6,6), Quvasoy 16 ta (6,2 %) shaharlarida, Farg'ona tumanida 14 ta (5,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,8 %), Furqat tumani 3 ta (1,2 %), Qo'shtepa tumani 4 ta (1,5 %), Bag'dod tumani 4 ta (1,5 %), Buvayda tumani 4 ta (1,5 %) va Yozyovon tumani 3 ta (1,2 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 noyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 174 ta (66,9 %), savdoda 33 ta (12,7 %), boshqa turlarida esa 13 ta (5,0 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 3 ta (1,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 7 ta (2,7 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5 ta (1,9 %), qurilishda 7 ta (2,7 %), tashish va saqlashda 6 ta (2,3 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 12 ta (4,6 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 57 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19 taga ko'paygan yoki 50.0 foizga oshgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 32 ta, savdoda 14 ta, sog'liqni saqlashda 1 ta va qurilishda 2 ta, boshqa korxonalarda 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 noyabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 23,1 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 noyabr holatiga qaraganda 13,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4384 tasi (19,0 %) Farg'ona, 3400 tasi (14,7 %) Qo'qon, 2501 tasi (10,8 %) Marg'ilon shaharlariga, 1255 tasi (5,4 %) Uchko'priq va 1153 tasi (5,0 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 23,1 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6191 tasi (26,8%) – savdoda, 6112 tasi (26,5%) - sanoatda, 2399 tasi (10,4 %) - qurilishda, 1490 tasi (6,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1315 tasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1151 tasi (5,0 %) - tashish va saqlashda, 982 tasi (4,3 %) - axborot va aloqa sohasida, 504 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2951 tasi (12,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-oktyabr holatiga 3222 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 12,0 foizga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona (579 ta), Qo'qon (430 ta), Marg'ilon (286 ta) shaharlarida, Oltiariq (197 ta) va Buvayda (174 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (66 ta), Beshariq (96 ta) hamda Qo'shtepa (74 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (991 ta), savdoda (740 ta), boshqa turdagi xizmatlar (359 ta), qurilishda (398 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (223 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (185 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (73 ta), tashish va saqlashda (149 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (104 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 noyabr holatiga 2696 tani tashkil etib, ulardan 2675 tasi yoki 99,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **21,0%**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 48,5 % yoki 1308 tasi sanoat, 13,4 % yoki 360 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,4 % yoki 360 tasi savdo, 9,8 % yoki 263 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 2,4 % yoki 64 tasi tashish va saqlash, 1,2 % yoki 32 tasi axborot va aloqa, 1,3 % yoki 36 tasi qurilish, 0,9 % yoki 23 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 9,3 % yoki 250 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi
 Statistik registrlarni yuritish bo'limi
 Nashr uchun mas'ul: E.Ro'ziboyev

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
 registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
 tayyorlangan